

INGLIZ TILINING GLOBAL MIQIYOSDA KENG TARQALISH SABABLARI

Rayhona Narzikulova
SamDCHTI o'qituvchisi

Aziza Choriyeva
SamDCHTI 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Jamiyatning har bir sohasida ingliz tili muhim bir qismiga aylanishga ulgurdi . Yaqin yillar ichida ingliz tili o'rganuvchilar ko'rsatkichi maksimal tarzda oshdi. Bu tilning globallashuviga bir necha sabablar bor .Uning ommalashuviga sabablar va hozirgi o'rni haqida faktlar va sonlar orqali ko'rsatib o'tiladi .

Kalit sozlar: tarixiy omillar, iqtisodiy tasir ,texnologiya va ilm- fan, ma'daniy tasir, o'rganuvchilar soni.

Hozirgi kunda ingliz tili globallashuv darajasi eng yuqori bolgan tillardan biri bunga sabab esa bir nechta. Bir necha asrlar oldin mustamlakachilik davrlarida inglizzabon davlatlar katta hududlarni egallab oldi va bu hududlar tijoratning qaynoq o'choqlari edi. Shunday qilib u nafaqat iqtisodiy ta'sirini balki madaniyat va texnologiyalar rivojlanishidagi o'rnini topdi.

Ingliz tili eng qadimiy tillardan biri hisoblanadi va uning paydo bo'lish tarixi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi Ingliz tili dastlab 16- asrdan qo'llanila boshladi va u avvalgilariga qaraganda ancha o'zgarishlar bilan boyitilgan edi. Bundan bir asr o'tib Buyuk Britaniya eng kuchli imperiyalardan biriga aylandi. Britaniya imperiyasi Afrikadan Osiyo ,Shimoliy va Janubiy Amerikagacha kengayib , o'z ta'sirini kuchaytirdi. Natijada, ingliz tili Britaniyaning sobiq mustamlaka mamlakatlari bo'lgan Hindiston , Avstraliya Afrika va Kanadaning asosiy tiliga aylandi.

XX asrga kelib esa ingliz tili o'zining iqtisodiy ta'sirini o'tkaza boshladi. AQSHning import va eksportdagi roli bu tilning xalqaro dunyo bozoridagi imkoniyatlarini nafaqat yetarli tarzda balki qisqa vaqt ichida ochib berdi . Har bir savdo aloqalarini o'rnatmoqchi bo'lgan davlatlar bu tildan foydalanishni boshladi.

Ingliz tili global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u xalqaro biznes, savdo, moliya va investitsiyalar sohalarida juda muhim. Ingliz tili global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u xalqaro biznes, savdo, moliya va investitsiyalar sohalarida muhim o'rin egallaydi. Quyida ingliz tilining iqtisodiyotga ta'sirini batafsil ko'rib chiqamiz.

Dunyodagi eng yirik moliyaviy markazlar – London, Nyu-York va Singapur – asosan ingliz tilida ish yuritadigan hududlardir.Jahon bo'ylab yirik savdo bitimlari va shartnomalar aksariyat hollarda ingliz tilida tuziladi.Xitoy va Germaniya kabi mamlakatlar ham xalqaro biznes sohasida ingliz tilidan foydalanishga majbur. Chunki jahon bozoriga yo'l ingliz tili orqali o'tadi.Ingliz tilini bilish dunyo bo'ylab yaxshi maoshli ish topish imkoniyatini oshiradi. Ko'plab xalqaro kompaniyalar (Amazon, Google, Samsung) ishga qabul qilish jarayonida ingliz tilini bilish eng asosiy jihatlardan biridir . Bu til orqali insonlar o'zlariga yaxshi hayot qura boshladi . Bunga katta misol qilib Kremniy vodiysini olishimiz mumkin .Kremniy vodiysi dunyoning eng qaynoq internet va biznes nuqtalardan biri. Bunday joyda ishlash uchun nafaqat professional bo'lish ,balki ingliz tilini bilish juda muhim.

Ingliz tili global iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Uni bilish nafaqat ish topish imkoniyatini oshiradi, balki xalqaro bozorga chiqish, investitsiyalar jalb qilish va innovatsiyalar yaratishda ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli, O'zbekistonda ham ingliz tilini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda.


Ingliz tili global iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Uni bilish nafaqat ish topish imkoniyatini oshiradi, balki xalqaro bozorga chiqish, investitsiyalar jalb qilish va innovatsiyalar yaratishda ham katta ahamiyatga ega bo'la boshladi.

XXI asr esa axborot texnologiyalar asri va bu davrda ham Ingliz tili o'z dominantlik o'rnini yo'qotgani yo'q. IT sohasidagi eng birinchi programma va internet texnologiyalari ingliz tilida yaratildi. Bu sohaga talab esa kundan kunga oshib borardi. Yaxshi daromad keltiruvchi bu kelajak fani juda ko'plab odamlarni ingliz tilini o'rganishga undadi.

Ilm-fan va texnologiya rivojlanishi bilan tadqiqotchilar uchun yagona tushunarli tilga ehtiyoj ortib bordi. Katta hajmdagi ilmiy tadqiqot maqola va qo'llanmalar shu tilda yozildi va bu olimlar uchun zarur vosita edi. Har bir izlanuvchi eng sifatli va qiziqarli ma'lumotlarni olish uchun bu tilga murojaat qila boshladi. Dunyo bo'ylab ilm insonlari uchun bu til "lingua franca" vazifasini bajara boshladi.

Madaniyat, san'at va tilning global ta'siri asosan kino va musiqa orqali keng tarqaldi, bu esa muayyan tilning ommalashuviga ham katta hissa qo'shdi. Gollivud kinoindustriyasining dunyo boylab rivojlanib hukmronlik cho'qqisiga chiqishi va Amerika musiqasi ommalashuvi asosiy sabablardan biri boldi. XX - XXI asrlar Gollivudning eng zo'r top kinolari davri bo'lib har bir insonni o'zining jangari ekshin va komediya filmlari bilan ohangrabodek tortdi. Bu barcha jarayonlar sababli ingliz tili har tomonlanma takomillashshgan universal ya'ni hozirgi darajasiga erishdi.

Bugungi kunda ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar soni kundan kunga oshib bormoqda. Birinchi diagrammada o'rganuvchilar sonini ikkinchi diagrammada esa ularning soni qanchalik tez sur'atda o'sganini guvohi bo'lamiz.



Yuqoridagilar ingliz tilining globallashuvining asosiy omillari. Ular jamiyatning har bir sohasidagi o'zni tufayli kompleksiv ravishda juda katta o'sishga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wikipedia. Ingliz tili – Ingliz tilining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va tarqalishi haqida umumiy ma'lumot. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Ingliz_tili
2. Sinaps.uz. Ingliz tilining tarixiy davrlari va shakllanishi – Ingliz tilining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari haqida qiziqarli ma'lumot. URL: <https://sinaps.uz/bilasizmi/2918>
3. Best Publication. Ingliz tilining shakllanishi va rivojlanishi – Ilmiy tahlil va tarixiy ma'lumotlar. URL: <https://bestpublication.org/index>
4. Odam.uz. Ingliz tilining qiziqarli tarixi – Ingliz tilining rivojlanishi va tarqalishi haqida maqola. URL: <https://odam.uz/news/tillar-qirol>
5. Vikipediya maqolasi: Ingliz tilining tarqalishi va so'zlashuvchilar soni haqida umumiy ma'lumot beradi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ingliz_tili
6. Kun.uz saytidagi maqola: Ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha davlatlar reytingi haqida ma'lumot beradi. <https://kun.uz/news/2019/12/15/>
7. ForumDaily saytidagi maqola: Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar va ularning aholisi haqida ma'lumot beradi. <https://www.forumdaily.com/uz/477245-2/>
8. Dilnoza Buronova. Yovvoyi tabiatning tiklanishi: Ernest Seton-Tompsonning "Lobo" va "Yovvoyi yo'rg'a" asarlari tahlili. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=AyBfU0EAAAAJ&citation_for_view=AyBfU0EAAAAJ:Qo2XoVZTnwC

9. Dilnoza Buronova. Moodle platformasida mustaqil ta'lim. ISSN 2181-4147 VOLUME 1, ISSUE 33 DECEMBER 2023

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=AyBfU0EAAAAJ&citation_for_view=AyBfU0EAAAAJ:8k81kl-MbHgC